https://gospodarkainnowacje.pl

GOSPODARKA I INNOWACJE

LABORATORIUM WIEDZY Artur Borcuch

Volume: 59 | 2025

Economy and Innovation
ISSN: 2545-0573

For more information contact: editor@gospodarkainnowacje.pl

AGRAR SOHADA INNOVATSION KLASTERLARNI JORIY ETISH: “BCT CLUSTER” MISOLIDA ILMIY-AMALIY TAHLIL

Rayimdjanova Gulnoza Xolmatovna
Prezident huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi Farg‘ona hududiy filiali o‘qituvchisi

A R T I C L E I N F O.

Kalit so‘zlar: Innovatsiya, klaster, agrosanoat, integratsiya, biogumus, biogaz, qishloq xo‘jaligi, eksport, sanoatlashtirish, ta’lim, kadrlar.

Annotatsiya

Ushbu maqolada O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligida innovatsion klasterlar tizimi joriy etilishi va uning iqtisodiy, ijtimoiy hamda ekologik samaralari tahlil etilgan. Xususan, Buxoro viloyatida amalga oshirilayotgan “BCT Cluster” loyihasi misolida innovatsiya, integratsiya va ishlab chiqarish zanjiri o‘rtasidagi bog‘liqlik ochib berilgan. Maqolada klaster modelining ilmiy, ta’limiy va ishlab chiqarish jarayonlarini uyg‘unlashtirishdagi roli hamda barqaror rivojlanishdagi o‘rni asoslangan.

http://www.gospodarkainnowacje.pl/ © 2025 LWAB.

Zamonaviy qishloq xo‘jaligini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar jahon tajribasida o‘zining ijobiy natijalarini bermoqda. Ayniqsa, resurslardan oqilona foydalanish, eksportbop mahsulot yetishtirish va aholi bandligini ta’minlashda klasterlashtirish tizimi alohida ahamiyatga ega. O‘zbekistonda Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida qishloq xo‘jaligini sanoatlashtirish, xom ashyoni chuqur qayta ishlash, klaster asosida ishlab chiqarishni tashkil etishga katta e’tibor qaratilmoqda.

Agrar tarmoqqa innovatsiyalarni keng tatbiq qilish, zaminimizda yetishtirilayotgan xom ashyoni o‘zimizda qayta ishlashni chuqurlashtirish bugungi zamon talabi hisoblanadi. Zero, qishloq xo‘jaligi qanchalik sanoatlashsa, davlatning iqtisodiy va eksport salohiyati shunchalik ortadi, aholi turmush farovonligi yuksaladi. Shu bois O‘zbekistonda keyingi paytlarda ilg‘or texnologiyalarga asoslangan infratuzilmani yaratish, qishloq xo‘jaligida klaster usulini joriy etishga jiddiy e’tibor qaratilmoqda. Ana shunday innovatsion loyihalardan biri Buxoro viloyatida ro‘yobga chiqarilgan. Kezi kelganda shuni alohida ta’kidlashni istardikki, O‘zbekistonda Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan jamiyatning barcha jabhalarida amalga oshirilayotgan tub o‘zgarishlar rivojlanishning yangi davrini boshlab berdi. Aslida, o‘zgarishlar pallasida o‘sha davr nafasini his qilib, yurt taraqqiyotini to‘g‘ri o‘zanga solib yuborgan haqiqiy millat yetakchilari dunyoda kam topiladi. Masalan, o‘tgan asrning ikkinchi yarmida Singapurni boshqargan Li Kuan YU yangicha islohotlari bilan qoloq davlatni qisqa vaqt ichida jahondagi eng ilg‘or mamlakatlar qatoriga Yoki “madaniy inqilob”dan keyin hayot to‘liq izdan chiqib, deyarli fuqarolar urushi holatiga kelib qolgan Xitoy boshqaruvini qo‘lga olgan Den Syaopinni olib borgan islohotlaridan bilsa bo‘ladi. U xitoylik rahbarlarning ikkinchi yangi avlodini yaratdi, yangicha fikrlash va tafakkurga asos soldi, Chin o‘lkasidagi iqtisodiy islohotlar tashabbuskoriga aylandi. Natijada xalq jar yoqasidan ortga qaytdi, qaddini tikladi, o‘zligini angladi, bir tanu jon bo‘lib mehnat qildi. Va qisqa muddat ichida mazkur davlat nafaqat iqtisodiy ijtimoiy barqarorlikka erishdi, balki dunyo bozorining eng yirik vakillaridan biriga, sayyoraning yetakchilari safiga qo‘shildi. O‘zbekistonda

Copyright © 2025 All rights reserved International Journal for Gospodarka i Innowacje This work licensed under a Creative Commons Attribution 4.0

Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan hayotga tatbiq etilayotgan innovatsion tashabbuslari “Singapur mo‘jizasi” va Den Syaopin islohotlarini eslatmoqda. Birgina qishloq xo‘jaligining muhim tarmog‘i bo‘lgan paxtachilikda klaster tizimini qo‘llash bo‘yicha ilgari surayotgan g‘oyalari hamda novatorlik faoliyati buning yorqin tasdig‘idir. Prezident Shavkat Mirziyoyevning Buxoro viloyatiga tashrifi doirasida ushbu yo‘nalishda olib borilayotgan ishlarni yuqori baholab, ularni yanada takomillashtirish bo‘yicha qimmatli taklif va tavsiyalar berdi. Qayd etish lozimki, davlat rahbarining 2016 yil 21 dekabrdagi “2017- 2019 yillarda to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi to‘g‘risida”gi qarori ijrosi doirasida aynan ushbu hududda “BCT Cluster” xorij korxonasi tashkil etildi. Buning uchun 123,1 million AQSH dollarlik investitsiya yo‘naltirilib, dunyoning yetakchi davlatlarida ishlab chiqarilgan zamonaviy, kalava, uni bo‘yash va to‘quv-trikotaj fabrikalari tashkil etildi va tozalash zavodi, beshta fabrikani o‘z ichiga olgan to‘qimachilik majmuasi, yog‘-moy zavodi, 12 ming bosh qoramol parvarishlashga mo‘ljallangan chorvachilik fermasi, biogaz ishlab chiqarish zavodi, tejamkor texnologiyalarga asoslangan 20 gektarlik issiqxona, 25 turdan ortiq sut va go‘sht mahsulotlari tayyorlanadigan korxona shular jumlasidan. Matoni bo‘yashda ishlatiluvchi qimmatbaho tabiiy bo‘yoq olinadigan indigo-ferum o‘simligi ham aynan klaster hududida ekilgan. Klasterning innovatsion to‘qimachilik korxonalari uchun sanoatbop xom ashyoning bir qismi esa tomchilatib sug‘oriladigan ekin maydonlarida yetishtiriladi. Yog‘-moy zavodida chigitni qayta ishlash hisobiga olingan yog‘ iste’molchilarga jo‘natilsa, kunjara hamda sheluxa shu yerdagi ferma ehtiyojlarini ta’minlashda qo‘l keladi. O‘z navbatida, chorvachilik majmuasi va ishlab chiqarish jarayonida hosil bo‘ladigan organik chiqindilar kelgusida bunyod etiladigan 20 gektarli issiqxonani isitish manbai bo‘lgan biogaz hamda qimmatbaho o‘g‘it – biogumus ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan.

1-jadval. “BCT Cluster” loyihasining investitsiya yo‘nalishlari

(mln AQSH dollari)

Yo‘nalishlar Sarmoya miqdori (mln $)	**Sarmoya miqdori (mln $)**
To‘qimachilik	40.5
Yog‘-moy sanoati	25.2
Chorvachilik	30.0
Biogaz texnologiyalari	10.4
Ta’lim va kadrlar	17.0
Jami	**123.1**

Bundan tashqari paxta-to‘qimachilik klasterining boshqa ishlab chiqarish tuzilmalaridan afzalliklari ham bo‘lib, bu yagona texnologik zanjirga birlashtirilgan korxonalar majmui va aholi turli qatlamlarini o‘zida jamlovchi bog‘lam, ayni paytda sohada innovatsion iqtisodiyotga o‘tishning muhim bosqichi hisoblanadi. U ilm-fan, ta’lim hamda ishlab chiqarish integratsiyasini chuqurlashtirish, yangi innovatsion texnologiyalarni amaliyotga jadal joriy etishda dolzarb ahamiyatga ega. Chunki bu yerda xom ashyo qayta ishlashning barcha bosqichidan o‘tib, eksportbop tayyor mahsulotga aylanadi. Shunday ekan, klasterni yaratish olim va iqtisodchilar, qishloq xo‘jaligi, sanoat xodimlari, dizaynerlar salohiyati, ilg‘or tajribasini qisqacha qilib aytganda, innovatsion klaster, bu – bir majmua doirasida bir jamoa bo‘lib yerlarni shudgorlash, chigit ekish, paxtani parvarishlab, hosilini yig‘ib-terib olish, xom ashyoni chuqur qayta ishlash bilan bog‘liq korxonalarni birlashtiruvchi ishlab chiqarish uslubidir. Mazkur jarayonda hamma ishchilar manfaatlari uyg‘unlashadi. YA’ni xom ashyo yetishtiruvchidan tortib, uni qayta ishlovchilargacha bo‘lgan barcha ishchi xodim mahsulot sifatiga birdek javobgar bo‘ladi. Chunki shunga yarasha oxirgi tovarni sotishdan paydo bo‘ladigan qo‘shimcha qiymatning bir qismi shu ishga bosh qo‘shgan ishchilarga taqsimlanadi. Bunday rag‘bat ularni nomigagina emas, balki sidqidildan mehnat qilishga undaydi. Hayot haqiqati shuki, agar oxirgi mahsulot oluvchilar bilan yerga

Copyright © 2025 All rights reserved International Journal for Gospodarka i Innowacje This work licensed under a Creative Commons Attribution 4.0

ishlov beruvchilar manfaatlari bir biriga bog‘lanmas ekan, bundan nafaqat dehqon yoki investor, balki davlat ham manfaat ko‘rmaydi. Hozirgi kunda ularning keggayib boryabdi. Shuni alohida aytish kerakki, ishchidan tortib, menejer-rahbarlargacha har tomonlama maqbul oylik ish haqlari belgilangan. Shu o‘rinda ko‘pchilikda savol tug‘ilishi tabiiy: oylik maosh miqdorining qoniqarli ekanligi tushunarli hol, lekin mehnat qilish muddati mavsumiy-ku? Aslida unday emas. Bu klaster tizimida dehqon ham, rahbar ham qishin-yozin ishlaydi. YA’ni ular yil davomida nafaqat maosh, balki yaxshi ishlasa, mukofot puli ham oladi. Qanday qilib degan savol tug‘ilishi tabiiy. Misol uchun, bu yil qish mavsumida ishchilar uch guruhga bo‘linib, chorva chiqindilarini yig‘ishdi. Har bir brigadaga 100 gektardan maydon ajratib berildi. Ularda qazilgan katta-katta handaqlarda biogumus tayyorlanmoqda. Ma’lumot uchun aytib o‘tish kerak, mutaxassislar hisob kitoblariga qaraganda, chorvachilikda go‘sht-sut mahsulotlaridan ko‘ra, bugungi kunda biogumus ikki barobar ko‘p daromad keltirmoqda.



1-diagramma. Klasterning ish o‘rinlari bo‘yicha taqsimoti (foizlarda)

Yuqoridagi diagrammadan ko‘rinib turibdiki, har bir tarmoq bo‘yicha klasterning ish o‘rinlari bo‘yicha taqsimoti (foizlarda) berilgan ko’rsatkichlarini ko’rish mumkin.

- ✓ To‘qimachilik – 35%
- ✓ Qishloq xo‘jaligi – 30%
- ✓ Chorvachilik – 20%
- ✓ Texnologiya va ta’lim – 15%

Shuningdek, 230 dan ortiq zamonaviy traktor, qishloq xo‘jaligi texnikasi hamda chorvachilikni rivojlantirish uchun Germaniyadan jihozlar olib kelingan. Buning natijasida muhandislar, haydovchilar, mexanizatorlar kabi mutaxassisliklar bo‘yicha qo‘shimcha 500 ta ish o‘rni yaratilgan.

Umuman, klaster tizimi sabab o‘n mingga yaqin doimiy ish joylari paydo bo‘ldi hamda ishsiz aholi ish bilan ta’minlandi. Tan olish kerak, hozir ko‘p yerlar “charchagan”. Shuning uchun, eng avvalo, ekin maydonlarining unumdorligini oshirish kerak. Buning uchun tuproq tarkibini yaxshilash maqsadida almashlab ekishni yo‘lga qo‘yildi. Shunda yetti yil bir yerga paxta, uch yil beda ekildi. Natijada, yer ham “tiriladi”, quvvatga to‘ladi, paxta ҳосили ҳам зўр бўлади.

Copyright © 2025 All rights reserved International Journal for Gospodarka i Innowacje This work licensed under a Creative Commons Attribution 4.0



1-grafik. “BCT Cluster” ekologik samaradorligi (indeks holatida 2020–2024)

Bu grafik 2020–2024 yillar mobaynida tuproq unumdorligi, chiqindilarni qayta ishlash va suv tejash darajalaridagi o‘sishni aks ettiradi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, almashlab ekish sxemasini qo‘llab, yerlarning bir qismida paxta ekish qisqarishi 8000 ming gektardan olinadigan hosil miqdorini aslo kamaytirmaydi. Aksincha, hosildorlik oshishi hisobiga ko‘payadi. Binobarin, Prezident Shavkat Mirziyoyev ham klaster usuliga biz O‘zbekiston paxtachiligining kelajagi sifatida qaramoqdamiz, deya e’tirof etgan edi. O‘z navbatida, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan hamkorlikda oliy o‘quv yurtlari talabalari amaliyot o‘tashlari uchun sharoit yaratish, kelgusida ularni ishga olish sharti bilan eng iqtidorli hamda a’lochilariga stipendiya joriy etish, shuningdek, Yaponiya, Italiya va boshqa chet davlatlarga malakasini oshirish uchun jo‘natish chora-tadbirlari ko‘rilmoqda. Zero, Buxorodagi klaster zanjirining uzilmas halqasi bu ilmiy, ta’lim hamda kadrlarni tayyorlash tizimi ham hisoblanadi. Bundan tashqari, dunyodagi mashhur kompaniyalar bilan hamkorlikda eng kuchli dizayner-modelyerlarni olib kelish bo‘yicha sa’y-harakatlar davom ettirilmoqda. Bularning barchasi insonlar va davlat manfaatlarini birlashtirib, pirovardida klaster – integratsiya, innovatsiya va iqtisodiy o‘sish mezoni ekanligini amalda to‘liq isbotlashi muqarrar.

Adabiyotlar

1. “Agrar islohotlarni yanada chuqurlashtirish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini, ayniqsa sanoat mahsulotlarini chuqur qayta ishlashni tashkil etish, tayyor mahsulot eksportini kengaytirish bo'yicha loyihalarni monitoring qilish va amalga oshirish”, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ma'ruzasi, Toshkent, 2017
2. Райимджанова, Г. (2021). WAYS FOR FURTHER DEVELOPMENT OF THE AGRARIAN SECTOR. EurasianUnionScientists, 3(3 (84)), 21-23.
3. Rayimdjanova, G. H. (2022). Cluster–A New Opportunity and Effectiveness. Texas Journal of Agriculture and Biological Sciences, 5, 105-107.
4. Rayimdjanova, G. H. (2022). ISSUES OF THE DEVELOPMENT OF CREATION OF CHAINS OF ADDED VALUE IN AGRICULTURAL PRODUCTION. Models and methods in modern science, 1(10), 9-17.

Copyright © 2025 All rights reserved International Journal for Gospodarka i Innowacje This work licensed under a Creative Commons Attribution 4.0

5. Райимджанова, Г. Х. (2024). ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ УПРАВЛЕНИЯ КЛАСТЕРИЗАЦИЕЙ АГРОПРОМЫШЛЕННЫХ КОМПЛЕКСОВ. Science and innovation, 3(Special Issue 21), 994-997

Copyright © 2025 All rights reserved International Journal for Gospodarka i Innowacje This work licensed under a Creative Commons Attribution 4.0